



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 4-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 4-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich - Texnika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro
davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Xamidov Akmal Amrulloevich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor
o'rinbosari)

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi professori).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va
psixologiya, ta‘lim texnologiyalari kafedrasi mudiri)

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasi dotsenti).



Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich — Doctor of Technical Sciences, Professor.

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Khamidov Akmal Amrulloevich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Dilafruz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).



Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович — доктор технических наук, профессор.

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Хамидов Акмал Амруллоевич — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Косимов Убайдулла Ахрорович — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).



Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
1	<i>G'AYBULLAYEV ALISHER ASADOVICH</i>	MAKTAB UQUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	12
2	<i>YOQUBJONOVA SEVARA BAHODIR QIZI</i>	PRESERVING THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE IN UZBEK TRANSLATION (BASED ON LEE KUAN YEW'S FROM THIRD WORLD TO FIRST)	18
3	<i>IBODULLOYEV NURALI SHERALIYEVICH</i>	PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARAYONIDA SAMARDORLIGI VA METODOLOGIK ASOSLARI	29
4	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA, NARZULLOYEVA JASMINA JO'RABEK QIZI</i>	IJTIMOYIY TARMOQLARNING O'SPirinLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	32
5	<i>QAZOQOV MUXRIDIN HOSHM O'G'LI</i>	ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ	37
6	<i>SAIDOVA RAYHONA AMON QIZI</i>	BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	40
7	<i>NISHONOVA ZUXRA VOXIDJON QIZI</i>	THE DEVELOPMENT OF THE PHONICS APPROACH AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS	43
8	<i>SADULLAYEVA SEVARA G'AYRADJONOVNA</i>	TALABALARDA UYQUSIZLIK VA UNING SALOMATLIKKA TA'SIRI	47
9	<i>SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI</i>	BAHOLASH AMALIYOTIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	51
10	<i>MAMATOV ALIMARDON SOTVOLDI O'G'LI, SHOMUROTOV ZOVID ZOKIROVICH</i>	PROFESSIONAL DEFORMATION AND ITS CAUSES	55
11	<i>UBAYDULLA AXROROVICH KOSIMOV</i>	KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXBOROT QABUL QILISH MODALLIGINING AHAMIYATI	60

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
12	<i>XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICh</i>	KASB TANLASHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘RNI	65
13	<i>JAXONOV JAVLONBEK JAMIL O‘G‘LI</i>	O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	69
14	<i>OSTONOVA LOBAR RASHID QIZI</i>	THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS’ LEISURE TIME	72
15	<i>SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI</i>	MUSTAQIL FAOLIYATNI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR	77
16	<i>HAMROYEV JAMSHID O‘G‘LI TEMURBEK</i>	MIGRATSIYA BILAN BOG‘LIQ IJTIMOY SHAROITLARDA O‘SMIRLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV STRATEGIYALARI.	80
17	<i>OBIDOVA ZILOLA FOZILOVNA</i>	YOSHLAR ORASIDA YUKSAK HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI	84
18	<i>QOSIMOVA SARVINOZ BAXTIYOROVNA</i>	YOSHLAR ONGIDA MANIPULYATSION TA‘SIRLARGA QARSHI IMMUNITETNI HOSIL QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI.	87
19	<i>SHODIYEVA UMEDA SHUHRAT QIZI</i>	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	93
20	<i>UMARALIYEVA MUNOJATXON MASHRABOVNA, IBRAGIMOVA MUHLISA ISMOILJON QIZI</i>	THE DIFFICULTY OF TRANSLATING HUMOR AND JOKES FROM ENGLISH INTO UZBEK	98
21	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O‘G‘LI</i>	CRITERIA FOR EVALUATING SOCIAL BEHAVIOR OF AN INDIVIDUAL DURING FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION AND THEIR PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS	102
22	<i>ABDULLAYEVA BARNO SAYFUTDINOVNA</i>	UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVI VA HAYOTIY STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	108
23	<i>AXATOV YO‘LDOSHJON HAMZAYEVICH</i>	TALABALARDA O‘QUV FAOLIYATINI METAKOGNITIV BOSHQARISH ORQALI QAT‘IYATLILIK VA MAS‘ULIYATLILIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	113

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
24	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	O'SPIRINLARDA METAKOGNITIV QOBILİYATLAR RIVOJIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR	121
25	<i>NAZAROV AKMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA'NAVIY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYALARI	128
26	<i>RUSTAMOV SHAVKAT SHUHRAT O'G'LI</i>	TRANSFORMATSION TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY-IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	135
27	<i>ALJANOVA GULJAHAN AMANGELDIYEVNA</i>	MAKTAB O'QUVCHILARIDA GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	142
28	<i>NURULLOYEV FIRUZ NO'MONJONOVICH</i>	BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA YO'LLARI	147
29	<i>ZARIPOVA MAFTUNA BAHROM QIZI</i>	CHET EL BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA UMUMINSONIY IJTIMOYIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	152
30	<i>TURSUNOVA DILBAR DILBAR ZAFAROVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	156
31	<i>BEGMATOVA MUNIRA MUNIRA TOLIBJON QIZI</i>	SHAXSNING UMUMIY SALOMATLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA TALQIN ETILISHI	159
32	<i>NUSRATOVA MEXRINISO BAXSHILLOYEVNA</i>	PEDAGOG VA TALABA O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SHAXSDA ALTRUIZM MOTIVLARINING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI	167
33	<i>MAKSADOVA MEHRINISO SAYXONOVNA</i>	PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING PROFESSIONAL QUALITIES AND ATTRIBUTES OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS	171

Zaripova Maftuna Bahrom qizi

JDPU Boshlang‘ich ta‘lim nazariyasi va metodikasi kafedrası katta o‘qituvchisi

**CHET EL BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA
UMUMINSONIY IJTIMOY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY
YO‘NALISHLARI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma‘naviyatini shakllantirishda chet el bolalar adabiyotining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. Jahon adabiyoti durdonalari orqali bolalarda do‘stlik, hamdardlik, adolat va bag‘rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishning metodik asoslari yoritilgan. Maqolada xorijiy asarlar qahramonlari misolida o‘quvchilarning ijtimoiy xulq-atvori va dunyoqarashini boyitish imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Chet el adabiyoti, boshlang‘ich sinf, umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy tarbiya, ma‘naviy kamolot, madaniyatlararo muloqot, badiiy idrok.

Зарипова Мафтуна Бахром кизи

*Старший преподаватель кафедры теории и методики начального образования
Джизакского государственного педагогического университета*

**ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ
СОЦИАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ ОБРАЗЦОВ
ЗАРУБЕЖНОЙ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

Аннотация. В данной статье анализируется социально-педагогическое значение зарубежной детской литературы в формировании духовности учащихся начальных классов. Рассматриваются методические основы утверждения общечеловеческих ценностей, таких как дружба, сострадание, справедливость и толерантность, через шедевры мировой литературы. На примере героев зарубежных произведений раскрываются возможности обогащения социального поведения и мировоззрения учащихся.

Ключевые слова: Зарубежная литература, начальные классы, общечеловеческие ценности, социальное воспитание, духовное развитие, межкультурный диалог, художественное восприятие.

Zaripova Maftuna Bahrom qizi

Senior Lecturer, Department of Theory and Methodology of Primary Education, Jizzakh State Pedagogical University

**MAIN DIRECTIONS OF FORMING UNIVERSAL HUMAN SOCIAL VALUES IN
STUDENTS BASED ON EXAMPLES OF FOREIGN CHILDREN’S LITERATURE**

Annotation. This article analyzes the socio-pedagogical significance of foreign children's literature in shaping the spirituality of primary school students. It highlights the methodological foundations for establishing universal human values such as friendship, empathy, justice, and tolerance through masterpieces of world literature. Using characters from foreign works as examples, the article explores the potential for enriching students' social behavior and worldview.

Key words: Foreign literature, primary school, universal values, social education, spiritual development, intercultural dialogue, artistic perception.

Kirish. Bugungi shiddatli globallashuv va axborot almashinuvi davrida yosh avlodning ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda badiiy adabiyotning, xususan, jahon bolalar adabiyotining o‘rni beqiyosdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun adabiy asar nafaqat ko‘ngilochar vosita, balki ularni ijtimoiy hayotga tayyorlovchi, umuminsoniy qadriyatlarni o‘rgatuvchi muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy jahon adabiyoti an‘anaviy didaktik qoliplardan, ya‘ni faqat tayyor xulosa bilan tugaydigan "Bir bor ekan, bir yo‘q ekan..." tipidagi

ertaklardan uzoqlashib, o'quvchini erkin mushohada yuritishga, voqelikka tanqidiy va mustaqil yondashishga chorlamoqda. Bunday asarlarda qahramonlarning murakkab hayotiy vaziyatlardagi tanlovi va shaxsiy g'oyalarining ifodalanishi bolalarda nutq ravonligini va o'z fikrini dadil bayon etish ko'nikmasini rivojlantiradi.

O'zbek kitobxonlari uchun jahon adabiyoti namoyandalarning asarlari juda yaqin va qadrlidir, chunki ulardagi g'oyaviy yo'nalishlar milliy qadriyatlarimiz bilan hamohanglik kasb etadi. Masalan, boshlang'ich sinf "O'qish savodxonligi" darsliklariga kiritilgan Sharl Perroning "Qizil shapkacha" ertagi misolida bolalarning ma'naviy olamini boyitish, ularni ijtimoiy ogohlikka va atrofdagilar bilan muloqotda hushyorlikka o'rgatish mumkin. Bunday asarlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarga "Qahramon o'rnida bo'lsangiz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?" kabi muammoli savollar bilan murojaat qilish ularning empatiya hissini va ijtimoiy moslashuvchanligini oshiradi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon va o'zbek bolalar adabiyoti o'rtasidagi mantiqiy va g'oyaviy o'xshashliklar esa o'quvchilarda dunyo xalqlarining ezgu maqsadlari mushtarak ekanligi haqidagi tushunchani shakllantiradi. Xususan, Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asaridagi qahramonning turfa olamlardagi sarguzashtlari va Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridagi Hoshimjonning kutilmagan vaziyatlarga tushishi o'quvchida qiziqish uyg'otish bilan birga, ijtimoiy adolat va insoniylik tushunchalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, jahon adabiyotidagi "Zolushka" va o'zbek xalq og'zaki ijodidagi "Zumrad va Qimmat" asarlari o'rtasidagi tipologik yaqinlik - ya'ni o'gay ona zulmi ostida ham o'zligini, mehr-muhabbatini va mehnatsevarligini yo'qotmagan qahramonlar taqdiri - bolalarda ichki go'zallik va sabr-toqat kabi ijtimoiy fazilatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Bolalar o'qishi uchun mo'ljallangan asarlar barcha xalqlar tarixida qadimdan davom etib kelgan. O'zbek bolalar adabiyoti ham Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "nasihatnoma", "axloq kitoblari" tarzida shakllangan bo'lsa-da, uning rivojlanishi ma'rifatparvarlik, maktab-maorif tizimi islohotlari bilan hamohang tarzda o'sib bordi. Bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar majmuyi tom ma'noda bolalar adabiyotini tashkil etsa-da, asosan, sof badiiy asarlar bu tushuncha mohiyatini anglatishi an'anaga aylangan. Bolalar yozuvchisi N.Fozilovning fikricha, "Bolalar adabiyoti–nozik adabiyot. Bolalar adabiyoti biz bilgan kattalar adabiyotining boshi.... Bu adabiyot–hurmatlab adabiyot, e'zoztalab adabiyot... Bolaning ko'ngli ham shunday. Uni sindirib bo'lmaydi. U –mehrtalab". Bu fikrlarning yorqin isboti sifatida bolalar uchun mo'ljallangan barcha asarlar yakunida hamisha yaxshilik bilan tugash, qahramonlarning murod-maqsadlariga yetishishi, shuningdek, yomonlik jazosini topishini ko'rishimiz mumkin. Chunki hali yosh o'quvchining qalbida ishonuvchanlik, mehribonlik, jasurlik, soddadillik kabi sof tuyg'ular jo'sh urayotgan bir paytda yomonlik, yovuzlik g'alaba qozongan asar bilan nafaqat ularning qalbida, balki ong-u shuurida ham o'chmas salbiy izlar qolishini o'zbek bolalar adabiyoti yozuvchi va shoirlari juda yaxshi bilishadi.

Bugungi kunda xalqaro bolalar adabiyoti an'anaviy qoliplardan voz kechgan holda, o'quvchining mustaqil mulohaza yuritishi va shaxsiy dunyoqarashini erkin ifodalashiga xizmat qiluvchi asarlar bilan boyib bormoqda. Xususan, zamonaviy asarlar "Bir bor ekan, bir yo'q ekan..." kabi odatiy syujet chiziqdari hamda baxtli yakun topuvchi tayyor andozalar o'rniga, o'quvchini noodatiy ma'lumotlar va falsafiy mushohadalar bilan oziqlantirmoqda. Bu kabi ijod namunalari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida o'z g'oyalarini dadil himoya qilish va nutq ravonligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning yosh kitobxonlari kamolotida jahon adabiyoti durdonalarining o'rni beqiyosdir. Shuni ta'kidlash joizki, boshlang'ich ta'limning "O'qish savodxonligi" darsliklari tarkibiga ham xalqaro adabiyot namoyandalarning eng sara asarlari kiritilgan. Mazkur asarlar asosida suratga olingan animatsion filmlar esa ularning ommaviylikini yanada oshirgan. Masalan, Sharl Perroning "Qizil shapkacha" ertagini bilmaydigan yoki uning ekranlashtirilgan varianti kirib bormagan xonadonni topish mushkul. Ushbu ertak vositasida bolalarning ma'naviy olamini yuksaltirish va mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish mumkin. Buning uchun dars jarayonida o'quvchilarga quyidagi muammoli savollar bilan murojaat qilish samaralidir:

“Agarda siz Qizil shapkacha bo‘lganingizda, o‘rmon yo‘lida qanday qaror qabul qilgan bo‘lar edingiz?”

“Sizingcha, bo‘rining kirdikorlari va yolg‘onchilik tabiati oxir-oqibat o‘zi uchun qanday oqibatlarni keltirib chiqardi?”

Bunday savol-javoblar o‘quvchining nutqiy malakasini oshirish bilan birga, ularning erkin fikrlash qobiliyatini ham charxlaydi. Bu jarayonda har bir bolaning shaxsiy fikri tinglanishi va qadrlanishi pedagogik nuqtayi nazardan juda muhim. Shuningdek, ertakni rollarga bo‘lib sahnalashtirish – Bo‘ri, Qizil shapkacha va Buvi obrazlarini o‘quvchilar ijrosida gavdalandirish darsning interaktivligini oshirib, mavzuning xotirada uzoq saqlanishini ta‘minlaydi.

Jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti namunalarida o‘ziga xos mantiqiy yaqinliklar va mushtarakliklarni kuzatish mumkin. Masalan, Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” hamda Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asarlarini g‘oyaviy jihatdan egizak asarlar deyish mumkin. Gulliver turfa orollarda turli ijtimoiy qatlamlar va noodatiy vaziyatlarga duch kelsa, Hoshimjon ham o‘zining sehrli qalpoqchasi yordamida sarguzashtlar girdobida qoladi.

Bundan tashqari, Hamza Imomberdiyevning “Ajdah komida” hikoyasi bilan “Qizil shapkacha” ertagi o‘rtasida, shuningdek, o‘zbek xalqining “Zumrad va Qimmat” ertagi bilan Sharl Perroning “Zolushka” asari syujet chiziqlarida hayratlanarli o‘xshashliklar mavjud. Bu kabi qiyosiy tahlillar o‘quvchining adabiy tasavvurini boyitib, jahon madaniy merosining yaxlitligini anglashga yordam beradi.

Adabiy o‘xshashliklar zanjirini yana uzoq davom ettirish mumkin. Yuqorida tilga olingan ertak va dostonlarda voqealar rivoji aynan bir xil bo‘lmasa-da, syujet yo‘nalishi, qahramonlar fojiasi va asarning umumiy g‘oyaviy mazmunida hayratlanarli mushtarakliklar ko‘zga tashlanadi.

Masalan, Sharl Perroning “Zolushka” obrazini tahlil qilsak, uning o‘gay ona va uning qizlari tomonidan muntazam kamsitilishiga guvoh bo‘lamiz. Biroq, qizaloqning ichki go‘zalligi va samimiyati tufayli atrof-muhitdagi barcha tirik jonotlar hamda ezgu niyatli insonlar unga nisbatan cheksiz mehr va xayrixohlik bilan munosabatda bo‘ladilar.

Xuddi shunday ijtimoiy-axloqiy manzara o‘zbek xalq og‘zaki ijodining durdonasi bo‘lmish “Zumrad va Qimmat” ertagida ham aks etgan. Zumrad ham o‘gay onasi va uning erka qizi Qimmatning zulmi ostida kun kechiradi, ulardan faqat nafrat ko‘radi. Shunga qaramay, Zumrad o‘zining odobi, mehnatsevarligi va sadoqati bilan atrofdagilarning e‘tiborini qozonadi hamda sevimli qahramonga aylanadi. Bu kabi parallellar dunyo xalqlari adabiyotida ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash mavzusi ijtimoiy kelib chiqishidan qat‘i nazar, mushtarak qadriyatlarga asoslanishini isbotlaydi.

Muhokama. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chet el bolalar adabiyoti namunalaridan ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanish o‘quvchilarda umuminsoniy ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday adabiyotlar orqali bolalar turli xalqlar madaniyati, urf-odatlarini, hayotiy qarashlari bilan tanishib, o‘z dunyoqarashini kengaytiradi hamda tolerantlik, bag‘rikenglik, mehr-oqibat kabi muhim sifatlarni o‘zida mujassamlashtiradi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, chet el bolalar adabiyotida ko‘tarilgan mavzular – do‘stlik, halollik, adolat, insonparvarlik kabi qadriyatlar universal xarakterga ega bo‘lib, ular millat va hududdan qat‘i nazar barcha jamiyatlar uchun muhimdir. Ushbu asarlarni o‘qish va tahlil qilish orqali o‘quvchilar voqea-hodisalarni turli nuqtai nazardan baholashga, qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga o‘rganadi.

Shuningdek, chet el bolalar adabiyotini o‘qitishda interfaol metodlardan, xususan, suhbat, rolli o‘yinlar, munozara va grafik organayzerlardan foydalanish o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi rolni bajarib, o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini rag‘batlantiradi va ularni erkin fikr bildirishga undaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday yondashuv o‘quvchilarning nafaqat o‘qish savodxonligini, balki ularning ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Xususan, empatiya hissi kuchayadi, boshqalarning fikriga hurmat bilan qarash, jamoada ishlash va ijtimoiy mas‘uliyat kabi ko‘nikmalar shakllanadi.

Biroq, muhokama natijalariga ko‘ra, chet el bolalar adabiyotini tanlashda o‘quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlik darajasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar e‘tiborga olinmasa, ta‘lim samaradorligi pasayishi mumkin.

Xulosa. Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma‘naviyatini shakllantirishda chet el adabiyoti shunchaki qo‘shimcha mutolaa manbai emas, balki ularni global ijtimoiy muhitga tayyorlovchi strategik vositadir. Jahon adabiyoti durdonalarini milliy namunalar bilan qiyosiy o‘rganish orqali bola dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy to‘siqlarni yengib o‘tishni, umuminsoniy qadriyatlarni o‘z qadriyatlari kabi qabul qilishni o‘rganadi. Mazkur jarayonning ijtimoiy asosi shundan iboratki, adabiyot darslari bolada nafaqat kitobxonlik ko‘nikmasini, balki jamiyatda yashash san‘ati - empatiya, bag‘rikenglik va adolat tamoyillarini qaror toptiradi. Yuqorida tahlil qilingan “Zolushka” va “Zumrad va Qimmat” kabi asarlarning g‘oyaviy mushtarakligi o‘quvchiga yaxshilik va mehnatsevarlik chegarasiz ekanligini anglatadi. Bu esa o‘z navbatida, kelajakda nafaqat o‘z millatining sodiq farzandi, balki jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, erkin va tanqidiy fikrlovchi komil shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi .

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

- 1.Jo‘rayev N. “Boshlang‘ich ta‘limda adabiy ta‘lim metodikasi”, 2021.
- 2.Smith J. “Modern Children's Literature and Social Growth”, 2019.
- 3.Piankovsky V. “Psychological aspects of fairy tales”, 2018.
- 4.To‘xtaboyev X. “Sariq devni minib” (Nashriyot so‘zboshisi), 2015.
- 5.Safarov O. “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”, 2010.
- 6.JamilovaB.O‘zbek bolalar adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. „Innovatsiya – Ziyo”,2020, 276 bet.
- 7.Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi.–Toshkent 2018.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: aspec.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 4-Son.